2023-yil 15-mart, № 11(9440)

Aks-sado

"Ma'rifat" gazetasining 9-sonida (2023-yil 1-mart) filologiya fanlari doktori, professor Baxtiyor Mengliyev, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Inomjon Azimovlarning "Jadidlar o'zbek tilidagi unlilar haqida", filologiya fanlari doktori Tursunali Jumayevning "O'zbek adabiy tilida singarmonizm tarixiy an'ana sifatida", tilshunos Jo'ra Xudoyberdiyevning "Qatag'on qilingan tovushlar qismati" kabi sarlavhali maqolalari nashr etildi. Ushbu maqolalarni birlashtirib turgan mavzu – o'zbek tilida 6 ta emas, 9 ta unli mavjudligi, ushbu fikrga jadid tilshunoslarining munosabati, o'zbek tili alifbosida 6 unli saqlanishining tarixiy(siyosiy) sabablari haqida fikr yuritilgan.

JADIDLAR O'ZBEK TILIDAGI UNLILAR HAQIDA

JADIDLAR O'ZBEK TILIDAGI UNLILAR HAQIDA

Alifbomiz "kompyuter alifbosi" bo'lishga tayyormi?

Tabiiy tilga ishlov berishda har bir tilning xususiyati alohida hisobga olinsa-da, bir oilaga mansub tillar uchun umumiy lingvistik tahlil dasturlari yaratishda mazkur oilaga mansub barcha tillarning umumiy xususiyatlari inobatga olinadi. Umuman olganda, tabiiy tilga avtomatik ishlov berishda tovush va alifbo masalasi ovozni tanib olishga asoslangan (rus. разпознование речи, ingl. text recognation) dastur hamda qarindosh tillararo tarjima dasturlari tuzishda ahamiyatli.

Nutq tovushini avtomatik tanib olish va uni matnga aylantirish (speech to text)da tilda mavjud har bir fonema/tovushni ifodalovchi alohida harfning alifboda aks etishi talab qilinadi. Aks holda, ovoz matnga aylantirilganda xatoliklar yuzaga keladi. Buni tabiiy tilga ishlov berish bo'yicha turli dasturlar ishlab chiqqan Istanbul texnika universiteti professori Eshref Adali ham ta'kidlaydi. Uning yozishicha, ovozni matnga aylantirish hamda qardosh tillar orasida tarjima dasturi yaratish uchun dastlab unlilarni ifodalovchi harflar tengligiga erishish kerak.

O'zbek tilida 6 ta emas, 9 ta unli mavjudligi haqida ko'plab olimlar fikr bildirishgan, misollar bilan dalillashgan. Bildirilgan fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, 9 ta unli(ingichka va yo'g'on) juftliklarini 2 guruhga ajratish mumkin:

- Ma'no farqlovchi juftliklar: *(olmani) bo'ladi / (tadbir) bo'ladi; (pulni) to'la / to'la (savat);*
- Ma'no farqlamaydigan, ammo ingichka/yo'g'on talaffuz qilinib, shunday yozilishi kerak bo'lgan unlilar: *quruq uzum* birikmasida birinchi so'zdagi barcha unlilar yo'g'on, ikkinchi so'zdagi har ikki unli ingichka.

Matnni ovozga, ovozni matnga aylantiruvchi dasturlarning mukammal ishlashi, so'zning ma'nosi farqlangan(omonimlik farqlangan) holda taqdim etishi uchun unlilar tizimi mukammallashtirilishi lozim.

Qarindosh tillar orasida tarjima dasturlari yaratish boshqa-boshqa til oilalariga mansub tillar orasidagi avtomatik tarjima dasturini yaratishga nisbatan osonroq, bunday dasturlarning natijasi ham inson tomonidan amalga oshirilgan tarjimaga yaqin bo'lishi mumkin. Chunki qarindosh tillarning grammatikasi o'xshash bo'ladi. Tarjima dasturi asosan tarjima qilinadigan tillar leksikoni va grammatik shakllar lug'atidan tashkil topadi. Leksikon va grammatik shakllarning mosligi qancha yuqori bo'lsa, tarjima sifati shu qadar yuqori bo'ladi. Bu yuzaki qaralganda shunday. Ammo turkiy tillarning fonetikasini kuzatar ekanmiz, avtomatik tarjima uchun faqat leksikon va grammatik shakllar lug'atining yetarli bo'lmasligini ko'ramiz. Quyida turkiy tillar oilasiga mansub tillarda unlilar soni va sifatini qiyoslaymiz:

Tillar	Unli soni	Ingichka					Yo'g'on				
O'zbek	6	A		i		u		o'	o		e
Turk	8	A		ı	i	u	ü	ö	o		e
Qozoq	9	a	ə	ы	si	ұ	ү		o	ө	e
Qirg'iz	8	A			i	u	ü	ö	o		e
Turkman	10	I, y, i, u, e, o, ø, æ, a									
Tatar		a, ə, ye, i, o, ө, u, ү,									
Ozarboyjon	9	A	ə	ı	i	u	ü	ö	o		e

Ko'rinadiki, turkiy tillarda unlilar amalda(nazariyada) son va sifat jihatdan farq qilar ekan.

Xalqaro fonetika assotsiatsiyasi lotin grafikasiga asoslangan xalqaro fonetik alifbo – API belgilar tizimini ishlab chiqqan. APIdan chet tili o'qituvchilari va til o'rganuvchi talabalar, tilshunos, logoped, qo'shiqchi, aktyor, leksikograf va tarjimonlar foydalanishadi.

THE INTERNATIONAL PHONETIC ALPHABET (revised to 2020)

CONSONANTS (PULMONIC) — © 2020 IPA

	Bilabial	Labiodental	Dental	Alveolar	Postalveolar	Retroflex	Palatal	Velar	Uvular	Pharyngeal	Glottal
Plosive	p b			t d		ʈ ɖ	c ɟ	k g	q ɢ		ʔ
Nasal	m	ɱ		n		ɳ	ɲ	ŋ	ɴ		
Trill	ʙ			r					ʀ		
Tap or Flap		ⱱ		ɾ		ɽ					
Fricative	ɸ β	f v	θ ð	s z	ʃ ʒ	ʂ ʐ	ç ʝ	x ɣ	χ ʁ	ħ ʕ	h ɦ
Lateral fricative				ɬ ɮ							
Approximant		ʋ		ɹ		ɻ	j	ɰ			
Lateral approximant				l		ɭ	ʎ	ʟ			

Symbols to the right in a cell are voiced, to the left are voiceless. Shaded areas denote articulations judged impossible.

Xalqaro fonetika assotsiatsiyasi ishlab chiqqan ushbu alifbo virtual alifboni yaratish yo'lidagi asosiy qadam bo'ldi. Turli alifbolarni dasturlar uchun modifikatsiya qilish, ularning ayni dastur tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga erishishga xizmat qiladi.

Yana bir misol. Google qidiruv tizimida ovozli qidiruv funktsiyasi allaqachon ishga tushgan. So'zlar ingliz va rus tillarida osonlik bilan matnga aylantiriladi, qidiruv natijasi qoniqarli. Afsuski, o'zbek tilida talaffuz qilingan so'zlarni Google taniy olmaydi, talaffuz qilingan so'zlar qidiruv oynasida xato teriladi. Buning sababi shundaki, o'zbek tilidagi barcha tovushlar alifboda mavjud emas: o'zbek tilida bir tovush bir harf bilan belgilanmagan. Agar o'zbek tilidagi barcha tovushlar o'z belgisiga ega bo'lsa, Googledagi ovozli qidiruv va bundan keyingi dasturlarning natijasi yaxshilanadi.

Ta'kidlamoqchi bo'lganimiz, hozirgi o'zbek tilidagi barcha unlilar alifboda aks etmas ekan, tabiiy tilga avtomatik ishlov beruvchi dasturlar, sinxron tarjimonlar ishlab chiqish orzuligicha qolib ketadi. Butun dunyoda sun'iy intellekt ko'plab muammolarni yechib yurgan bir paytda, biz o'zbek tilida mavjud tovushlarni hech bo'lmasa, virtual alifbo uchun aks ettira olmasligimiz jur'atsizlikdan boshqa narsa emas. Ushbu masala dunyo kompyuter lingvistkasida allaqachon hal qilingan. Mazkur qarash bo'yicha xulosa shuki, tilda mavjud tovushlarning barchasi alifboda ifodalanishi kerak.

Shahlo HAMROYEVA,
filologiya fanlari doktori

"Yangilik to'nini kiygan eskilik"

Tilning yashami millat hayoti davomiyligi sifatida baholanadi. Uning sofligini, o'z asilligini saqlash masalasi ham til soh iblarining tildagi va o'zi yashayotgan mamlakat yuritayotgan siyosatdagi haqqi hisoblanadi. Ya'ni til egalari o'z tiliga doir asil xususiyatlarni til siyosatida ko'rishi, o'z tilining alohida jihatlari o'z avlodlariga sof holida yetishini ta'minlaydigan va bu masala huquqiy mustahkamlangan jamiyatda yashashi lozim.

Bu masalada mutaxassislar, zamon va fan jonkuyarlari xuddi jadidlar kabi "unutilgan va unuttirilgan" milliylikni tiklash yo'lida doim uyg'oq va harakatda bo'ladi. Mana shunday "yangilik to'nini kiygan eskilik" – oxirgi paytlarda mutaxassislarni va xalqning chinakam jonkuyar vakillarini befarq qoldirmayotgan – singarmonizm hodisasidir.

Bir guruh olimlarning xalq ziyolilari gazetasida e'lon qilingan ilmiy asoslangan fikrlari meni ona tili va adabiyot o'qituvchisi sifatida befarq qoldirmadi. Ko'p yillik pedagogik tajribam davomida o'zim duch kelgan ba'zi savollarga olimlarimizning maqolalarini o'qib javob topganday bo'ldim. O'zbek tili fonetikasi, alifbosi, shuningdek, o'zbek xalqining savod chiqarishi masalalari jadidlar tomonidan qay darajada bahsga tortilgani, qanday fikr yuritilgani turli rakurslardan o'rganilib keng ommaga, ayniqsa, ziyolilar qatlamiga jamlangan holda ma'lum qilinganini ta'kidlash joiz.

Masalaning siyosiy jihati, uzoq muddatli maqsadlar ko'zlangani va bu boradagi sa'y-harakatlarning kimlar tomonidan amalga oshirilganiga mutaxassislar baho berishi, munosabat bildirishi o'rinli bo'lar. Men o'zim kabi barcha ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining eng og'riqli nuqtasi bo'lgan – o'quvchilarning imlo savodxonligi muammosining asosiy sabablaridan biri ochiqlanganiga urg'u bermoqchiman. Bugungi kunda yosh avlodning saviyasini diktant, umuman, yozma nutq orqali tekshirish uchun biz bilgan baholash mezonlarini tamomila qaytadan, "yumshatgan holda" ishlab chiqmasdan baholasak, hamma o'quvchilarimiz (5 – 10 foizdan tashqari) yoppasiga "ikkichi"ga aylanishi turgan gap. Biror sinf yo'qki, o'quvchilari "uchunchi" deb yozmaydigan; "bilan"ni "blan", "boradi"ni "borad" deb yozmagan. Hamma o'quvchi shunday xato yozadi deyishdan yiroqman, albatta. Lekin tilimizni o'rganayotgan xorijlikning o'zbek tilidagi so'zlarni, garchi biz bundan xursand bo'lib, ba'zan faxrlanayotgan bo'lsak ham, "qiiiz", "iikkiii", "biiilan", "bordiii" kabi talaffuz qilishi va o'quvchilarimizning yuqoridagi kabi xatolari o'rtasida bog'liqlik bor. Bu esa ma'rifatparvar olimlarimiz ko'tarayotgan masala – singarmonizm hodisasining yozuvimizda umuman aks etmaganligi sababidan.

Men taniydigan viloyatlik tanishlarimning hammasi garchi uchrashganimizda, suhbatlashganimizda adabiy tilda gapirishga harakat qilishsa ham, ularning nutqidagi tovushlarning uyg'unlashuvi adabiy talaffuzni "buzayotgani" sezilib turadi. Yashash hududida tojik millatiga mansub kishilar bilan aralash yashovchi aholi nutqida ham singarmonizm sezilib turadigan holatlarni kuzatganman. Shu o'rinda aytish joizki, Elbekning eroniylashgan shevaning o'zbek tiliga aloqasi yo'qligi haqidagi fikri bugungi kunda ham bir qancha hududlardagi o'zbek shevalari uchun haqiqat.

O'zbek bolasi savodli bo'laman desa, o'zbek adabiy tilini xuddi boshqa tilni o'rgangandek yodlab o'rganishga mahkum. So'zlarning yozilishi aytilishi bilan nomuvofiq o'rinlar juda ko'p. Adabiy talaffuz esa shu milliy tilning bir qismi bo'lgan sheva vakillari har bitta so'zni diqqat bilan, tovushlarni to'g'ri joylashtirib, bunda ham xotirasi yordamiga tayanib talaffuz qilishni talab etadi. "Undan ko'ra chet tilini o'rganish oson" degan o'quvchilarim ham ko'p bo'lgan. Qolaversa, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayonida ham chet elliklarda talaffuz bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi, natijada til o'rganish jarayoni ham qiyinlashadi. Bu esa dunyoda o'z o'rniga ega bo'lishni istagan har qanday til uchun to'siq bo'ladi. Ona tili ta'limining mazmuni o'zgarayotgani quvonarli hol. O'zbek tilining chet tili sifatida o'qitilishi mazmuni ham yanada boyitilsa, xususan, tilimizning ajralmas o'ziga xos xususiyati bo'lgan singarmonizm yozuvda aks etsa, o'zbek tilini o'rganish biroz yengillashadi, bor jozibasi bilan o'rganilishiga yordam beradi, deb o'ylayman.

Qisqacha aytganda, uyg'unlashuv(singarmonizm)ning yozuvda aks etishi ta'lim jarayoni uchun sezilarli darajada muvaffaqiyatli natijalarga sabab bo'lishi shubhasiz.

Roza ERMETOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi
M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey o'qituvchisi

TA'TIL QISHDA BO'LSA – 5

"Ta'til qishda bo'lsa" maqolalarini o'qib...

Normamat Eshonqulovning "Ta'til qishda bo'lsa" turkum maqolalarini (2023-yil 4-, 25-yanvar, 22-fevral) katta qiziqish va diqqat bilan o'qib chiqdim.

Muallif o'ta dolzarb masalalarni ko'tarib chiqibdi va meni anchadan beri qiynab yurgan muammolarga batafsil to'xtalibdi. Hayotining katta qismi maktab bilan bog'liq inson sifatida N.Eshonqulov o'ta to'g'ri va bugungi kun uchun o'ta zarur muammolarni ko'targan va bu muammolarning yechimini mohirlik bilan bayon qilib bergan.

Bugun biz sifatli ta'lim haqida qayg'urar ekanmiz, maqola muallifi taklif qilayotgan variantlarda sifatli ta'lim sari dadil qadam ko'rsatilgan. Albatta, mavjud tizimga butunlay moslashib, o'rganib qolganlar bu yangiliklarni qabul qilishlari juda qiyin kechadi va bu borada ortiqcha bosh qotirib o'tirishni istashmaydi, mavjud tizimning o'zi yaxshi-ku, uni o'zgartirishga na hojat qabilida ish yuritishadi.

Sohada uzoq yillar o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, direktor(25 yil) va o'qituvchi bo'lib ishlagan inson sifatida bunday fikrdagilarga qo'rqmaslikni taklif qilaman. Chunki muallif taklif etayotgan o'quv yilini 4 ta chorakda emas, balki birinchi va ikkinchi yarimyilliklar shaklida amalga oshirish foyda bersa beradiki, zarar qilmaydi. Asosiysi, o'qituvchilar va o'quvchilar mehnati ancha yengillashadi. Shuningdek, ta'tillar qishda beriladigan bo'lsa, Respublikamizning tog' va tog' oldi hududlarida joylashgan deyarli barcha maktablarda bahor, kuz va qishda yog'adigan yomg'ir, qorlar tufayli yuzaga keladigan majburiy ta'tillarga barham berilardi. Uzoq yillik pedagoglik tajribam jarayonida ko'p kuzatganman: tog'oldi hududlarida joylashgan maktablarga aksariyat o'quvchilar uzoq masofa bosib kelishadi. Biroq olis masofadan kelayotgan o'quvchilar u yoqda tursin, hatto yaqin masofadan kelayotgan o'quvchilar ham yomg'irli, qorli kunlarda shalabbo bo'lib ketadi va ho'l kiyimlarda darsda o'tirishadi. Natijada esa kasallanib qolib, darsni bir necha kun qoldirishga majbur bo'lishadi. Bunday holat respublikamizning barcha tog' va tog'oldi hududlarida joylashgan maktablarda bot-bot takrorlanib turishi sababli sifatli ta'lim haqida qanday qilib gap bo'lishi mumkin? Butun qish davomida bunday maktablarda olis masofadan qatnashi oqibatida bir kun ham maktabga kelolmagan o'quvchilar borligi sir emas. Bunday maktablarda mavjud sinfxonalarning talab darajasida isitilmasligi kunday ravshan-ku.

Shu bois ham men Normamat Eshonqulovning qishki ta'tilning 5-dekabrdan 31-yanvargacha berilishi haqidagi taklifini 100 foiz qo'llab-quvvatlayman. Ustiga-ustak 50 kunlik qishki ta'til davomida 100 000 tonnalik ko'mir iqtisod qilinishi maqolalarda muallif tomonidan aniq-tiniq dalillangan.

Endi janubliklarning fikriga keladigan bo'lsak, 15-avgustdan boshlanadigan darslar kuzga yaqin paytda o'tilishini inobatga olsak, 26-maydan 10-iyungacha bo'lgan 16 kun davomida o'tiladigan darslarda issiq o'quvchilarga u qadar ta'sir qilmaydi, deb o'ylayman. Chunki biz necha-necha yillar davomida o'sha sobiq ittifoq davri tajribasi asosida iyun oyi davomida imtihonlar topshirib, hatto darslar ham o'tganmiz. Shu bois o'qish davriga qo'shiladigan 16 kun uchun muammo yaratishni joiz emas deb hisoblayman. Muhumi, ta'tillarni isloh qilish faqat va faqat ta'lim sifatining o'sishiga xizmat qilishiga ishonaman va maqolalar muallifi Normamat Eshonqulovning takliflarini maktablarimizga joriy qilishni mutasaddi rahbarlardan so'rab qolaman.

Omon HAYITOV,
Qo'shrabot tumanidagi
21-maktab o'qituvchisi

Mening ham taklifim bor

Shahnoza Ro'ziyevaning "Ma'rifat" gazetasining 5-sonida (2023-yil, 1-fevral) e'lon qilingan "Vazir Hilola Umarovaga ochiq xat" maqolasi ayni sohada muammolar hali yetarli ekanligini ko'rsatib turibdi.

VAZIR HILOLA UMAROVAGA OCHIQ XAT

Ayrimlarning nazarida kutubxona eng quyi bo'g'in hisoblanadi. Biroq o'zini anglagan, ma'naviyatli insonlar u javohirlar saqlanayotgan ostonasi oltin qasr ekanligini yaxshi anglaydi.

Maqolada tilga olingan takliflar qatori yana e'tiborga olinishi kerak bo'lgan jihatlarni sanab o'tish joiz deb hisoblayman. Jumladan:

- Adabiyotlarga bibliografik ishlov berishda nashriyotlarning e'tiborliroq bo'lishi;
- Katalog kartochkalarga nashriyotning o'zida bosma holda tayyor bibliografik ishlov berilishi;
- Kutubxona hujjatlarining davlat standartlari asosida nashriyotlarda chiqarilib butun respublika bo'yicha maktab kutubxonalariga tarqatilishi(kutubxona kundaligi, kitobxon formulyari, inventar kitobi, jamlama va yakka tartibda hisobga olish kitoblari, yorliqchalar, qaytarish varaqchasi, kartochkalar, kitob pasportlari va hokazo);
- Zamon bilan hamnafas bo'lishi uchun sohaga tegishli yaqin yillar ichida bosmadan chiqarilgan adabiyotlarni majburiy holatda maktab kutubxonachilariga tavsiya etish;
- Kutubxonachilarning ish faoliyatidagi ortiqcha qog'ozbozliklarni ham xuddi o'qituvchilarnikidek isloh qilish;
- Kutubxonachilarni ham toifa olish uchun attestatsiyadan o'tkazish;
- Kutubxonalar kompyuter jihozlari bilan ta'minlanishi;
- Kutubxonalar fondi to'g'ridan-to'g'ri viloyatlar kesimida nashriyotlar bilan shartnoma tuzilib buyurtmalar asosida to'ldirib borilishi(badiiy adabiyotlar);
- Yo'qolgan kitoblarning o'rnini qoplash uchun hech bo'lmasa viloyatda bitta darsliklar zaxira kitob do'koni bo'lishi;
- Ko'pchilik o'quvchilar repetitor tavsiya qilgan adabiyotlarni so'raydi. Bunday adabiyotlar sonini ko'paytirish, adabiyot fanlaridan darsliklarga kiritilgan mualliflar asarlari bilan mutanosib tarzda fondni to'ldirish;
- Har bir maktab kutubxonasining o'quv zali bo'lishi maqsadga muvofiqdir.
- Yana bir muhim muammo – kadrlar masalasi. Tizimda faqat mutaxassislar ishlashi kerak. Shu sabab, ish staji bor nomutaxassis kutubxonachilarni oliy ma'lumotli qilish choralari ko'rib chiqilishi lozim. Qolaversa, maosh masalasi ham o'ta muhim va o'rinli ko'tarilgan.

Bugun kitobxonlikka juda katta e'tibor qaratilmoqda. Uning eng birinchi targ'ibotchisi esa kutubxonachi ekanligi, shak-shubhasiz. Shu bois, takliflarimizning inobatga olinib, amalga oshishi ma'naviyatli avlod kamol topishida ko'makchi bo'ladi, deb hisoblayman.

Norxol XO'JAQULOVA,
Qamashi tumanidagi
2-maktab kutubxonachisi